

## SIRDARYO VILOYATI AHOLISINING DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

**Bobojonov Salohiddin**

*5-22 guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: U.Mirzaliyev*

Sirdaryo viloyati aholisini tumanlar va yirik aholi maskanlari – shahar va shaharchalar kesimida ko‘rib chiqsak quyidagicha manzaraga duch kelamiz:

1. **Sayxunobod tumani** (sobiq Voroshilov rayoni) – Sirdaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Sirdaryo viloyatining shimoldan Sirdaryo tumani, janubdan Guliston tumani, sharqiy tomondan Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani bilan chegaradosh.

Sayxunobod tumani aholisining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil etadi (90%). Shuningdek, tumanda tojiklar, qozoqlar, ruslar, ukrainlar, armanlar, ozarbayjonlar, mesxeti turklari, tatarlar (qozon va qrim tatarlari), qirg‘izlar yashaydi. Sayxunobod o‘zbeklarining asosiy ko‘pchiligi Jizzax viloyatidan – zominliklar, baxmalliklar, forishliklar, Janubiy Qozog‘iston o‘zbeklari (Sayram, Qoramurt, Turkiston), Samarqand viloyatidan – Qo‘shrabot va Bulung‘ur tumani, qashqadaryoliklar (Kasbi o‘zbek arablari, Chiroqchi), vodiyliliklar (ko‘pchiligi Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qon, qisman Andijon).

Sayxunobodda Zomindan ko‘chgan aholining sezilarli bir qismini tashkil qilib, ular o‘zlarining urug‘ nomlarini birmuncha saqlab qolishgan. Jumladan, zominlik yuz va qirqlar, qarapchilar, Zomin yoki Beshbuloq turklari o‘z urug‘ nomlarini birmuncha eslaydilar. Shuningdek, Forish tumanidan ko‘chgan o‘zbeklar o‘g‘uzcha elementli shevada so‘zlashsalar, yuz, qirq, qarapchilar o‘zbekcha qipchoq lahjasida, Zomin turklari o‘zbek tilining qarluq shevasida so‘zlashadilar. Janubiy Qozog‘istondan ko‘chgan o‘zbeklar asosan o‘zbek tilining qarluq o‘zbekchasi va qisman o‘g‘uz va qipchoq o‘zbekchalari aralash bir shevaga ega. Qashqadaryodan ko‘chgan aholi esa asosan qarluqcha (ayniqsa, arablar), qisman qipchoq (Chiroqchi) o‘zbekchasini saqlab qolishgan. Samarqand viloyatidan ko‘chgan Qo‘shrabot va Bulung‘ur o‘zbeklari asosan o‘zbek qipchoqchasida muloqat qilishadi.

Sayxunobod tumanida o‘zbeklardan son jihatdan keyingi o‘rinda turadigan tojiklar Jizzax viloyatining Forish tumani va Navoiy viloyatining Nurota tumanidan (Sintob, Eyji, Mojrim), Tojikistonning O‘ratepa (Istravshan)dan ko‘chib kelishgan. Sayxunobod tumanining G‘alaba qishlog‘ida, Sharof Rahimov qishlog‘i va Hisor qishlog‘ida ko‘pchilikni tashkil etadilar.

XX asrning oxirlarigacha Sayxunobod tumani aholisining sezilarli bir qismini tashkil etgan qozoqlar *qarjav* urug‘idan bo‘lishgan.

2. **Sirdaryo tumani** – Sirdaryo viloyatining shimoliy qismida joylashgan. Shimoli-g‘arbdan Qozog‘istonning Turkiston viloyati Maqta-orol tumani bilan, shimoli-sharqdan Toshkent viloyatining Chinoz tumani, janubdan Sirdaryo viloyatining Sayxunobod va Guliston tumanlari bilan chegaradosh. Tumanda 2 ta shahar – Sirdaryo va Baxt shaharlari

bor. Tumanda aholining asosiy qismi o'zbeklar tashkil etib, asosan forishliklar, zominliklar, baxmalliklar, Farg'ona vodiysi<sup>48</sup>, Janubiy qozog'istonliklar, Toshkent shahri va viloyatidan ko'chib kelgan aholidan iborat. Tumanda slavyanlar (rus, belorus, ukrain), tsiganlar va koreyslar ham yashashadi.

Baxt shahrida yashovchi o'zbeklarning katta bir qismi zominliklar, ya'ni Beshbuloq turklari, vodiyliliklar (Qo'qon xo'jalari), qisman namanganliklar, shahar atrofida esa baxmalliklari va samarqandliklar (Bulung'ur) yashashadi. Shuningdek, shaharda Tojik-mahalla deb ataladigan aholi maskanid o'ratepalik tojiklar istiqomat qilishadi. Baxt shahrining bir mahallasi "Turk-ovul" deb atalib, ular Zominning Beshbuloq mavzesidan ko'chib kelishgan. O'zbeklarning "turk guruhi"ga mansub deb bilinadigan ushbu mahalla aholisi o'zaro bir-birlarini "avlod" deb chaqirishadi.

Sirdaryo tumanining "Malik" qishloqlar yig'inida asosan Forish o'zbeklari va tojiklari hamda "eroniy" deb ataluvchi turkiy tilli aholi istiqomat qilishadi. Ularning shevasi ozarbayjon tiliga anchagina yaqin keladi. Ayrim talqinlarga ko'ra, ular Eronning Tabriz viloyatidan kelishgani uchun "eroniy" deb ataladi.

3. Sardoba (sobiq Ilich tumani, Sharof Rashidov tumani) – Sirdaryo viloyatining janubi-g'arbida joylashgan, markazi Paxtaobod shaharchasi. Janubi-g'arbdan Jizzax viloyatining Paxtakor tumani, sharqdan Sirdaryo viloyati Xovos tumani, shimoldan Oq-oltin tumani bilan chegaradosh. Tuman aholisining ko'pchiligi o'zbeklar, shu bilan birga tumanda tojiklar va qirg'izlar istiqomat qilishadi. O'zbek aholi baxmalliklar, forishliklar, zominliklar va Farg'ona vodiysidan ko'chib kelgan<sup>49</sup> aholidan tashkil topgan. Tumandagi tojik aholi forishliklar, qirg'izlar Zomindan ko'chgan aholi hisoblanadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Jizzax viloyatining Zomin va Forish tumanlaridan bir guruh aholini Mirzacho'l vohasidagi yangi tashkil etilgan tumanlariga ko'chirilishi paytida bugungi Sardoba (sobiq Ilich) tumaniga ham ko'plab jizzaxlik aholini kelib joylashdi. Quyida 1960-1972 yillar orasida Mirzacho'lda tashkil etilgan 6 ta ma'muriy-xo'jalik rayon (tuman)lariga ko'chirilgan Zomin va Forish tumanlari aholisining miqdorini keltirib o'tamiz<sup>50</sup>:

Oq-oltin	Do'stlik	Ilich (Sardoba)	Mirza-cho'l	Paxtakor	Yangiyer
4 ming kishi	11,2 ming kishi	24,1 ming kishi	15,7 ming kishi	26,4 ming kishi	32,4 ming kishi

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, 10 yildan ortiqroq vaqt ichida Mirzacho'l vohasidagi 6 ta tuman aholi tarkibiga Jizzax viloyatining birgina 2 ta tumanidan 103,800 kishi kelib qo'shilgan. Ularning katta qismi o'zbek aholi, bir qismi esa tojik tilli aholi bo'lgan. Mirzacho'lga ko'chirilgan jizzaxlik tojik tilli aholi orasida Forish tumanidagi Sintob, Mojrim, Eyji qishloqlari vakillari ko'pchilikni tashkil etishgan.

<sup>48</sup> Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўли ўзлаштиришда Фарғона водийси аҳолисининг кўчирилиши тарихидан // Ўтмишга назар. Махсус сон. – Тошкент, 2020. – Б. 462-468.

<sup>49</sup> Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўли ўзлаштиришда Фарғона водийси аҳолисининг кўчирилиши тарихидан. – Б. 462-468.

<sup>50</sup> Зияев Ф. С. Ўзбекистоннинг қўриқ ва бўз ерларида ерларида қишлоқ хўжалиги кадрларининг шаклланиши: тажриба, муаммолар (Мирзачўл минтақаси мисолила 1965-1970 йиллар). – Б. 49.

4. **Xovos tumani** – Sirdaryo viloyatining janubi-sharqida joylashgan bo‘lib, janubi-g‘arbdan Jizzax viloyatining Dashtobod tumani, janubdan Tojikiston respublikasi, shimoldan Mirzaobod va qisman Oq-oltin tumani, shimoli-sharq tomondan Boyovut bilan chegaradosh. Tuman aholisining ko‘pchiligi o‘zbeklar, qisman tojiklar va ruslar. Xovos tumani o‘zbek aholisining katta qismi asosan zominliklar, qisman baxmalliklar, shuningdek, tumandagi o‘zbeklar va tojiklarning sezilarli bir qismi Tojikistonning Xo‘jand (Sug‘d) viloyatining tumanga qo‘shni hududlaridan ko‘chib kelishgan. Ayniqsa, Tojikistondan ko‘chgan o‘zbek aholining bir qismini qo‘shni Zafarobod tumani (Tojikiston) Login qishlog‘idan kelganlar tashkil etadi.

Xovos tumanida bu yerda qadimdan yashagan o‘troq o‘zbek aholi – savotliklar (qad. Sabot) tashkil etib, ular o‘zbek tilining qarluq lahjasida so‘zlashuvchilardir. Shuningdek, tumanning mahalliy aholisining bir qismi Xovos shahri ichidagi Karvonsaroy mahallasida istiqomat qilgan tojik tilli aholidir.

5. **Guliston tumani** (sob. Krestyanka, markazi Komsomol posyolkasi, hozirgi Dehqonobod shaharchasi) – Sirdaryo viloyatining markaziy hududlarida joy olib, uning hududi viloyatning sharqiy qismlariga to‘g‘ri keladi. Sharqiy tomondan Toshkent viloyati Bekobod tumani, g‘arbda Guliston shahri va Mirzaobod tumani, shimolda Sayxunobod tumani, janubda Boyovut tumani bilan chegaradosh<sup>51</sup>.

Guliston tumani aholisining asosiy ko‘pchiligi o‘zbeklar, shuningdek, tojiklar, tatarlar, ruslar va hokazolardan iborat. XX asrning ikkinchi tumanda qrim-tatarlarning alohida mahallasi bo‘lgan (Beshbuloq mahallasida), biroq keyingi yillarda ularning ko‘pchiligi Qrimga ko‘chib ketishgan. Tumandagi o‘zbeklar zominliklar (nayman, yuz va turk urug‘lari), Mirzacho‘lning tub aholisi (- sobiq Frunze kolxozi), vodiyliliklar (Farg‘ona, Qo‘qon)dan iborat. Shuningdek, tumanda Forish tojiklari (Eyji, Mojrim) istiqomat qilishadi.

6. **Boyovut tumani** (ma‘muriy markazi Qatlavon shaharchasi) – Sirdaryo viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, sharqdan Toshkent viloyati Bekobod tumani, janubdan Xovos tumani, shimolda Guliston tumani va Guliston shahri, g‘arbdan Mirzaobod tumani bilan chegaradosh. Tuman aholisining asosiy qismini o‘zbeklar, sezilarli miqdorda tojiklar va boshqa millatlar tashkil etadi. O‘zbeklarning bir qismi boyovut urug‘iga mansub aholidan iborat. Tumandagi o‘zbek aholi asosan zominliklar, forishliklar, Farg‘ona vodiysidan<sup>52</sup> ko‘chgan aholidir. Tojik aholi esa Tojikistonning O‘ratepa (Istaravshan) hududidan ko‘chib kelishgan.

7. **Oq-oltin tumani** (Oq-oltin shaharchasi, sobiq nomi 17-sovxozi) – Sirdaryo viloyatining g‘arbiy hududida joylashgan bo‘lib, shimoli-g‘arbdan Qozog‘iston respublikasi Turkiston viloyati Maqtaorol tumani, sharqda Mirzaobod tumani, janubda Sardoba va qisman Xovos tumani, g‘arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Oq-oltin tumani aholisini asosan o‘zbeklar, qisman tojiklar va qozoqlar, slavyan (rus, belorus, ukrain), tatarlar va koreyslar yashaydilar. Tuman o‘zbek aholisi asosan zominliklar, baxmalliklar, forishliklar,

<sup>51</sup> Гойибназаров Э. История развитие города Гулистана (60-70-годы). Авторефер. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1989. - 19 с.

<sup>52</sup> Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўлни ўзлаштиришда Фарғона водийси аҳолисининг кўчирилиши тарихидан. – Б. 462-468.

Farg'ona vodiysidan ko'chgan aholi tashkil etadi<sup>53</sup>. Ayniqsa, tumanda Farg'ona, Andijon degan qishloqlar mavjud.

8. **Mirzaobod tumani** (Yangiobod shaharchasi) – Sirdaryo viloyatining markazida joylashib, sharqdan Guliston va Boyovut tumani, janubdan Xovos tumani, g'arbdan Oqoltin va qisman Sardoba tumani, shimoldan Qozog'iston respublikasi Turkiston viloyati Maqtaorol tumani, sharqiy tomondan Guliston shahri bilan chegaradosh. Aholining asosiy qismi o'zbeklar, qisman tojiklar, qozoqlar, slavyan (rus, belorus, ukrain), tatar va koreyslardir. O'zbeklar zominliklar, forishliklar, baxmalliklar, vodiyliliklar, tojik aholi esa Forish tojiklari (Sintob)dan iborat.

9. **Yangiyer shahri** – Sirdaryo viloyatining janubida joylashib, viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomidadir. Aholisining asosiy qismi o'zbeklar, ruslar, tatarlar, koreyslar va tojiklardan iborat. O'zbeklar asosan mahalliy savotliklar, balandchaqirliklar (Jizzax viloyati Yangiobod tumanidagi Balandchaqir mavzesi), Zafarobod va Login (Tojikiston), vodiyliliklar, zominliklardan tashkil topgan.

10. **Guliston shahri** – Sirdaryo viloyatining qoq markazida joylashgan, Sirdaryo viloyatining ma'muriy markazi. Shahar aholisining ko'pchiligi o'zbeklar, ularning katta qismi viloyatning turli burchaklari va qo'shni viloyatlardan ko'chgan aholi. Shuningdek, shaharda tojiklar, ruslar, tatarlar, koreyslar, mesxeti turklari, ozarbayjonlar, qozoqlar istiqomat qilishadi.

11. **Shirin shahri** – Sirdaryo viloyatiga bo'ysunuvchi shahar bo'lib, bu erda Farhod GRESI joylashgan. Shahar Tojikiston Respublikasi Sug'd viloyati (Xo'jand)ning Zafarobod tumani bilan chegaradosh. Shahar ko'pmillatli bo'lib, asosan o'zbeklar, tojiklar, ruslar va boshqa xalqlardan iborat. O'zbek aholi respublikaning turli hududlaridan ko'chib kelishgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Mirzacho'l vohasida XX asr boshlarigacha asosan o'zbeklar va qozoqlar mahalliy aholi hisoblanib, ularning bir qismi ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi chorvador aholi, bir qismi esa o'troq dehqon aholidan iborat bo'lgan. Xususan, Begovot, Qo'shtamg'ali, Uyas, Qirqtol, Boyovut va h.k. kishloqlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholi, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 550 desyatinagacha bo'lgan hududda dexqonchilik qilishgan<sup>54</sup>.

Sirdaryo viloyati aholisi etnik tarkibi jihatidan ko'p millatli hisoblana boshlagan davri XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. O'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq, rus, tatar, koreys va bir necha o'nlab etnik guruhlar majmuasini tashkil etadi. Geografik muxiti Mirzacho'lning janubiy-sharqiy qismini tashkil etgan, shimoliy tomondan qozoqlar, janubiy tomondan tojiklar bilan qo'shnihilik chegarasida o'rin olgan<sup>55</sup> bo'lib, Mirzacho'lni o'zlashtirishda hamkorlik faoliyatini olib borishgan<sup>56</sup>.

1956-yil 6-avgustda qabul qilingan: «O'zbekiston va Qozog'istonda paxta ishlab

<sup>53</sup> Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўлни ўзлаштиришда Фарғона vodiysi аҳолисининг кўчирилиши тарихидан. – Б. 467.

<sup>54</sup> Голодная степь. 1867-1917 / История края в документах. Отв. ред. Станишевский А.В. – М. "Наука" 1981. – С. 58-59, 101-102; Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси. – Б. 17-20.

<sup>55</sup> Рудзянский Д.И., Анаров А.Н. Сотрудничество Узбекистана и Казахстана в развитии мелиорации // ОНУ. 1986. №3. – С. 24; Сборник решений по сельскому хозяйству. – М., 1963. – С. 286.

<sup>56</sup> Эрбўтаева У.С. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўл қозоқларининг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти ва демографияси. – Б. 117-120.

chiqarishni ko'paytirish uchun Mirzacho'lining qo'riq erlarini sug'orish to'g'risida»gi qaror qabul kilindi. Mazkur qarorga ko'ra, 1956-1962 yillarda jami 300 ming gektar erni sug'orish va o'zlashtirish ko'zda tutilgan edi. Shundan 200 ming gektar er O'zbekiston SSR chekiga tushdi. 1956-yilda 205 ming gektar yangi er o'zlashtirildi. Ekin maydonlari 1917-yildan oldingi ko'rsatkichga qiyosan 6 marta ortdi. Shunday qilib, ilgari o'zlashtirilgan erlarni hisobga olganda, sug'oriladigan maydonlarning umumiy hududini 500 ming gektarga etkazish mo'ljallandi. Keyinroq esa Mirzacho'lda 130 ming gektar, yil oxirigacha 380 ming gektar qo'riq erlarni o'zlashtirish ko'zda tutildi. Shundan 266 ming gektari esa O'zbekistonga tegishli edi. 1958-yildagi qarorga binoan O'zbekistonda Janubiy Mirzacho'l anhorini qurish rejalandi<sup>57</sup>. Natijada vohaning katta bir qismida yangi aholi maskanlari barpo etilishiga asos solindi.

A.Boltayevning yozishicha, Mirzacho'l vohasida aholining o'sish tezligi aholi ro'yxatida ko'zga tashlanadi: (1959-1970 yillarda). Ana shu yillarda o'sish (ming kishi xisobidan) Jizzax viloyatida -155,7, Sirdaryoda esa - 139,4 % ni tashkil qiladi. 1970-1977 yillarda esa o'sish Jizzax viloyatida 124,3, Sirdaryo viloyatda esa 124,2 % ni tashkil etdi. Axolining bunday o'sishiga, turli hududlardan aholisining ko'chib kelishi ijobiy ta'sirini ko'rsatadi<sup>58</sup>.

Sovet davlatining "baynalmilal hududlar" yaratish siyosati eng qizg'in pallaga kirgan 1970-yillardagi statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi 1979-yilgi ma'lumotlardan o'sha kezlarda Sirdaryo viloyatida o'zbeklar aholining deyarli yarmini tashkil etgani, ruslar, tojiklar, qozoqlar, tatarlar viloyatdagi birmuncha ko'psonli millatlar bo'lganiga guvoh bo'lamiz.

*1979 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati aholisining etnik tarkibi (ming kishi hisobida)*

O'zbeklar	Ruslar	Tojiklar	Qozoqlar	Tatarlar	Jami
250 081	66 501	32 085	17 722	32 908	447 748

Agar quyidagi 1989-yilgi jadvalda keltirilgan Sirdaryo viloyati aholisi soniga diqqat qiladigan bo'lsak, viloyat aholisining miqdor jihatdan ancha o'sganligiga duch kelamiz. Bu masalaga 1979-1989 yilgi statistik ma'lumotlar asosida yondashib, viloyatdagi turli millatlar va ularning soni solishtiriladigan bo'lsa, o'zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar salmog'i ancha oshgani, tatarlarda kam miqdorda o'zgarish bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Qizig'i shundaki, ushbu yillar orasida o'zbeklarning soni keskin darajada ortib, viloyat aholisining katta qismini tashkil eta boshlagani ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ushbu 10 yil ichida qozoqlar soni keskin ortib, 1979-yilda 17 722 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1989-yilga kelib ularning soni 71 406 kishiga etgani ko'zga tashlanadi. Bu davrda tojik viloyatning tojik aholisi ham deyarli bir baravarga ko'paygani, ulardan keyin salmog'i ortgan millat sifatida ruslar turganiga guvoh bo'lamiz.

<sup>57</sup> Покорение Голодной степи. – Т.: Ўзбекистон, 1980.

<sup>58</sup> Болтаев А. Мирзачўл - Жиззах: ўтмиши ва бугуни. – Б. 129.



*1989 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati aholisining etnik tarkibi (ming kishi hisobida)*

O'zbek	Rus	To-jik	Qozoq	Tatar	Qrim tatar	Qirg'iz	Korey s	Turk	Jami
923 534	88 415	58 947	71 406	33 947	19 016	29 326	16 730	18 656	1 297 949

1980-1990 yillar oralig'ida nafaqat mamlakatimizda, balki Ittifoq miqyosida yuz bergan jarayonlar Sirdaryo viloyati demografiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. 1980-yilarning o'rtalarida qayta qurish, oshkoralik siyosati natijasida barcha ittifoqdosh respublikalarda "baynalmilalchilik siyosatiga" birmuncha putur etib, milliy uyg'onish, turli millatlarning o'z tarixiy vatanlariga qaytish istagi va hokazo kabi masalalar ko'tarila boshlaydi. Bu holat ayniqsa qrim tatar, mesxeti turk va yana bir asli qator kavkazlik bo'lgan millatlarning o'z vatanlariga ko'chib keta boshlashlarida kuzatiladi. Bu jarayon Sirdaryo viloyati aholisining demografik holatida o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida 20 ming kishi atrofida bo'lgan qrim tatarlar yoppasiga Qrimga ko'chishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, 1989-1990 yillardagi o'zbek va mesxeti turklar orasida Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida kelib chiqqan nizolar Sirdaryo viloyati demografiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular ham viloyatda qariyb 20 ming kishiga yaqin bir salmoqqa ega millat sifatida o'zlarining bir qator aholi maskanlarini barpo qilishgan va viloyat aholisining bir qismiga aylangan edilar. 1990-yillar boshida ularning katta bir qismi Rossiya, Qozog'iston va boshqa hududlarga ko'chib ketishlari natijasida 2000-yilga kelib Sirdaryo viloyatidagi mesxeti turklarining soni keskin kamayib, ularning viloyatdagi 5 mingga tushib qoldi. Shunga o'xshash holat qrim tatarlarda ham kuzatilib, quyidagi 2000-yilga tegishli statistik jadvalda ularning soni 4.4 ming kishi o'laroq ko'rsatilishida o'z ifodasiga ega.

2000-yildagi statistik ma'lumotlarda Sirdaryo viloyati aholisi soni va etnik tarkibi shahar va tumanlar kesimida quyidagi jadvalda berilgan<sup>59</sup>:

Наименование городов и районов области	Численность населения Всего:	Распределение численности населения по национальностям													
		Узбеки	Таджики	Русские	Казахи	Киргизы	Татары	Азербайджанцы	Украинцы	Армяне	Корейцы	кр.Татары	Турки	Немцы	Прочие
Сырдарьинская область	642,2	452,1	55,4	37,3	25,9	12,4	6,6	2,8	2,2	1,2	10,7	4,4	5,0	0,5	25,7
город Гулистан	73,2	46,5	3,1	9,1	1,4	0,1	1,8	0,6	0,6	0,3	3,6	1,4	1,1	0,2	3,4
город Ширин	13,9	8,9	0,6	3,0	0,0	0,1	0,4	0,0	0,0	0,0	0,4	0,2	0,0	0,0	0,3
город Янгиер	55,5	25,0	11,8	10,3	0,5	0,1	1,3	0,4	0,5	0,6	1,1	0,2	0,0	0,3	3,4
Акалтынский район	50,4	37,1	1,3	1,1	6,6	0,8	0,4	0,0	0,1	0,0	0,4	0,1	0,0	0,0	2,5
Баяутский район	79,1	65,9	8,0	1,0	0,0	0,1	0,3	0,1	0,0	0,0	0,1	0,3	0,2	0,0	3,1
Сайхунабадский район	59,0	34,4	9,1	0,8	9,5	0,1	0,2	0,0	0,1	0,0	0,7	0,6	0,5	0,0	3,3
Гулистанский район	50,1	42,6	2,3	1,3	0,3	0,2	0,4	0,1	0,1	0,0	0,5	0,1	0,4	0,0	1,8
Ш.Рашидовский район	49,7	35,6	1,1	1,2	0,3	9,2	0,4	0,1	0,1	0,0	0,2	0,1	0,0	0,0	1,4
Мирзабадский район	41,5	37,1	0,8	0,9	0,4	0,5	0,3	0,1	0,0	0,0	0,2	0,1	0,8	0,0	0,3
Меҳнатабадский район	23,1	20,4	0,4	0,4	0,2	1,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,3
Сырдарьинский район	102,4	59,1	13,2	7,9	6,9	0,0	0,9	1,2	0,7	0,3	3,3	1,3	2,0	0,0	5,6
Хавастский район	44,3	39,5	3,7	0,3	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,3

*Ushbu jadvalda o'rin olgan Sirdaryo viloyati aholisini etnik tarkibiga ko'ra sonini oradan 10 yil keyingi statistik jadvalda keltirilgan raqamlar bilan solishtiradigan bo'lsak,*

<sup>59</sup> УзР Давлат статистика қўмитаси. Сирдарё вилояти статистика бошқармаси. Демография ва Меҳнат бўлими.10-07/3\*А. 2000.

ayrim millatlarning soni birmuncha ortgani, ayrimlarining soni esa keskin tushib ketganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek, tojik, qirg'iz, tatar va ozarbayjon millatlarining soni birmuncha oshgan bo'lsa, rus, qozoq va koreyslarda keskin kamayish, ukrain, arman va nemislar sonida birmuncha pasayish bo'lganligi kuzatiladi. Viloyat aholisi etnik tarkibida o'ziga xos o'rni bo'lgan va 2000-yilgi statistik ma'lumotlarda 4.4 ming kishi deb keltirilgan qrim-tatarlar quyidagi jadvalda umuman ko'rsatilmaydi. Buning sababi, ularning bir qismi tarixiy vatani Qrimga ko'chib ketishlari bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tarafdin ular qozon tatarlari bilan qo'shib ko'rsatilgan bo'lishi ham mumkin. Buni 2010-yilgi statistik jadvalda tatarlar sonining birmuncha yuqori ko'rsatilishi ham tasdiqlaydi. Aslida qozon tatarlari ham rus va rus tilli boshqa millatlar qatorida keyingi o'nyilliklarda RF tarkibidagi Tatariston avtonom respublikasiga ko'chib keta boshlaganligi kuzatiladi.

2010-yildagi statistik ma'lumotlarda Sirdaryo viloyati aholisi soni va etnik tarkibi shahar va tumanlar kesimida quyidagi jadvalda berilgan<sup>60</sup>:

Наименование городов и районов	Численность населения всего (тыс.чел)	Распределения численности населения по национальностям												
		Узбеки	Таджики	Русские	Казахи	Киргизы	Татары	Азербайджанцы	Украинцы	Армяне	Корейцы	Туркмены	Немцы	Прочие
Всего по области	714,4	544,5	65,8	26,4	15,2	14,7	7,2	2,9	1,2	1,0	6,9	0,6	0,2	27,8
г.Гулистан	77,4	56,2	4,1	7,6	1,0	0,5	1,7	0,6	0,3	0,3	2,2	0,1	0,1	2,7
г.Ширин	16,6	13,1	0,7	1,5	0	0,1	0,5	0	0	0	0,2	0	0	0,5
г.Янгиер	32,2	18,3	6,8	3,4	0	0,1	0,5	0,2	0,1	0,2	0,2	0	0,1	2,3
Акалтынский район	51,7	40,9	1,8	0,9	3,5	1	0,3	0	0,1	0	0,3	0	0	2,9
Баяутский район	107,8	92,6	9,5	0,9	0,1	0,3	0,5	0,2	0	0	0,1	0,1	0	3,5
Сайхунабадский район	64,9	44,4	10,2	0,5	5	0,3	0,6	0,1	0,1	0	0,4	0,1	0	3,2
Гулистанский район	59,0	51,1	3,1	0,7	0,4	0,4	0,5	0,1	0,1	0	0,4	0,1	0	2,1
Сардобский район	55,8	40,9	1,7	1,0	0,4	9,9	0,3	0,1	0,1	0	0,2	0	0	1,2
Мирзаабадский район	59,6	55,2	1,7	0,5	0,4	0,5	0,4	0	0	0	0,2	0,1	0	0,6
Сырдарьинский район	108,8	72,1	15,0	5,4	3,9	0,3	1,2	1,4	0,3	0,3	2,2	0,1	0	6,6
Хавастский район	80,6	59,7	11,2	4,0	0,5	1,3	0,7	0,2	0,1	0,2	0,5	0	0	2,2

2010-yildagi Sirdaryo viloyati aholi soni va uning etnik tarkibga qarab o'zgarishini 2011-yildagi statistik ma'lumotlarga qarab tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ko'lamida o'zbek, tojik, qirg'iz va koreyslarning sonida o'sish kuzatilgani, rus, qozoq, ukrain, tatar va boshqa bir qator kam sonli millatlar sonida esa pasayishi bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ushbu jadvallarda o'rin olgan turkman, ozarbayjon, arman va nemislar sonida o'zgarish bo'lmaganligi ko'rinadi.

2011-2012 yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati shahar va tumanlar aholisining soni va etnik tarkibi quyidagicha bo'lgan<sup>61</sup>:

<sup>60</sup> ЎзР Давлат статистика қўмитаси. Сирдарё вилояти статистика бошқармаси. Демография ва Меҳнат бўлими.10-07/3\*А. 2010.

<sup>61</sup> ЎзР Давлат статистика қўмитаси. Сирдарё вилояти статистика бошқармаси. Демография ва Меҳнат бўлими.10-07/3\*А. 2012.

Наименование городов и районов	Численность населения всего (тыс.чел)	Распределения численности населения по национальностям														
		Узбеки	Каркалпок	Русские	Казах	Таджики	Туркмены	Киргизы	Украинцы	Беларус	Азербайджанцы	Татары	Немцы	Армяни	Корейцы	Прочие
Всего по области	739,5	569,5	0,1	25,0	13,8	68,5	0,6	15,2	1,1	0,4	2,9	6,9	0,2	1,0	8,9	25,4
г. Гулистан	82,6	60,0	0,0	7,5	1,1	4,4	0,1	0,5	0,3	0,1	0,6	1,6	0,1	0,3	2,6	3,4
г. Ширин	17,2	13,2	0,0	1,5	0,0	0,9	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,5	0	0	0,5	0,5
г. Янгиер	36,9	21,2	0,1	3,4	0,8	6,8	0,0	0,2	0,1	0,1	0,2	0,5	0,1	0,2	0,6	2,6
Акалтынский район	45,2	39,2	0,0	0,3	1,1	2,2	0,0	1,0	0,2	0,0	0,0	0,3	0	0	0,3	0,6
Баяутский район	112,6	95,7	0,0	0,9	1,3	9,8	0,1	0,4	0,0	0,0	0,2	0,5	0	0	0,4	3,3
Сайхунабадский район	67,2	46,9	0,0	0,5	4,2	10,5	0,1	0,5	0,1	0,0	0,1	0,6	0	0	0,6	3,1
Гулистанский район	61,5	53,2	0,0	0,7	0,5	3,4	0,1	0,4	0,1	0,0	0,1	0,5	0	0	0,4	2,1
Сардобский район	57,0	42,7	0,0	1,0	0,2	2,0	0,0	9,8	0,1	0,0	0,1	0,3	0	0	0,2	0,6
Мирзаабадский район	61,2	57,6	0,0	0,3	0,1	1,9	0,1	0,5	0,0	0,0	0,0	0,4	0	0	0,2	0,1
Сырдарьинский район	113,9	77,4	0,0	5,3	3,4	15,0	0,1	0,5	0,2	0,1	1,4	1,2	0	0,3	2,4	6,6
Хавастский район	84,2	62,4	0,0	3,6	1,1	11,6	0,0	1,3	0,0	0,1	0,2	0,5	0	0,2	0,7	2,5

Bugungi kunda, ya'ni 2020 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Sirdaryo viloyati O'zbekistonning aholisi eng kam viloyati bo'lib, bu yer umumiy aholisining soni 846 260 kishini tashkil qiladi. Aholining ko'pchiligi qishloqlarda yashab, 57,2% ni shahar aholisi 42,8% ni tashkil etgan. Shuningdek, viloyat aholisining katta qismi o'zbeklar iborat bo'lib, 668 762 kishini tashkil etgan<sup>62</sup>. X.Egamqulovning Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asoslanib yozishicha, 2020-yilda viloyat aholisining etnik tarkibi quyidagicha bo'lgan (ming kishi hisobida)<sup>63</sup>:

	Sirdaryo viloyati	Gulistonsh.	Shirinsh.	Yangiyersh.	Oqoltin	Boyo'vut	Sayxunobod	Guliston	Sardoba	Mirzaobod	Sirdaryo	Xavos
Jami aholi	846260	90398	18726	43307	51967	129503	77157	72453	65885	73249	128174	95441
Shu jumladan												
o'zbek	668762	69142	14721	30679	42319	113381	55566	63671	49830	68439	88491	72523
Qoraqalpog'rus	127	10	3	19	2	2	1	16	0	33	39	2
ukrain	926	189	85	8	173	77	33	107	71	35	111	37
belorus	398	61	22	7	18	38	14	55	17	21	94	51
qozoq	12915	1021	46	171	2928	439	3799	506	432	408	2549	616
Ozarbayjon	2874	599	16	120	48	217	125	126	64	72	1412	75
qirg'iz	17757	561	132	166	761	460	570	426	12187	539	400	1555
tojik	78587	5824	1044	6919	2115	11033	11664	3430	1130	2220	19309	13899
turkman	716	95	43	53	28	111	112	120	21	14	86	33
tatar	5911	1278	438	153	276	471	495	628	280	196	1305	391
lkoreys	7910	1966	191	345	359	109	821	411	216	215	2769	508
Boshqa millatlar	26609	3100	569	2146	2341	2284	2879	2165	924	639	7305	2257

<sup>62</sup> Egamkulov Kh.E. Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi uning geokriminolog holatga ta'siri // Электронное научно-практическое периодическое издания "Экономика и социуму Вып. 1 (80) часть (январь,2021). <http://www.iupr.ru>. 2011.

<sup>63</sup> Egamkulov Kh.E. Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibi uning geokriminolog holatga ta'siri // Электронное научно-практическое периодическое издания "Экономика и социуму Вып. 1 (80) часть (январь,2021). <http://www.iupr.ru>. 2011.



XX asrda O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida amalga oshirilgan turli islohatlarning deyarli barchasi mintaqaning Mirzacho'l vohasida yanada yaqqolroq o'z ifodasini topadi. Bungacha o'zbek xonliklari davrida nisbatan km o'zlashtirilgan va aholisi birmuncha tarqoq yashagan vohada yoppasiga o'zlashtirish ishlari boshlab yuboriladi. Sobiq ittifoq davrida bu hudud aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayonlarida o'ziga xos "tajriba maydoni"ga aylanadi. Asosiy maqsadi rus tilida so'zlashuvchi "sovet kishisini" yaratish bo'lgan va bu maqsadni "internatsionalizm" (baynalmilalchilik), turli xalqlar qardoshligi g'oyasi ostida amalga oshirishga intilgan kommunistik hukumat Mirzacho'lda yangi aholi maskanlari tashkil etib, ittifoqning turli hududlaridan aholini keltirib joylashtira boshlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Sovet hukumati davrida Mirzacho'l vohasidagi rayon (tuman)lar, kolxoz va sovxozlar asosan kommunistik partiya etakchilarining ism-familiyalari bilan nomlanadi. Bu ham sovet hukumatining "yagona sovet xalqi"ni yaratishda qo'llagan usullaridan biri edi. Bu ishni amalga oshirishda Markazdagilar turli shiorlarni o'rta tashlab, ittifoqning markaziy qismlaridan slavyanlar (rus, belorus, ukrainlar)ni, Volgabo'yidan tatarlarni, Kavkazdan ozarbayjon, armanilar va boshqalarni jalb qiladi. Shu bilan birga, mahalliy hukumat ham imkon qadar mahalliy aholini Mirzacho'ldagi yangi aholi maskanlari siyosatini olib borib, ularning son jihatdan oshishini ta'minlaydilar.

Qisqasi, XXI asr ilk o'nyilliklarida Mirzacho'l vohasi, xususan, Sirdaryo viloyati aholisining etnik tarkibida anchagina o'zgarishlar yuz bergan bo'lib, bu o'zgarishlar ayrim millatlar sonining ortishi, ayrimlarida pasayish kuzatilishida o'z ifodasini topdi. Viloyat aholisining milliy tarkibi va miqdor o'zgarishlarining negizida bir qator omillar yotadi. Birinchidan, viloyatning rus tilli aholisiga nisbatan o'zbek, tojik, qirg'iz kabi mahalliy aholi vakillari orasida tug'ilishning birmuncha yuqoriligi bo'lsa, ikkinchidan, ayrim millatlar vakillarining o'z tarixiy vatanlariga ommaviy ravishda ko'chib ketishlari kabi omillar o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, ruslar, ukrainlar, beloruslar, kavkazliklar (ozarbayjon, arman va h.k.), qozoqlar orasida ommaviy ravishda ko'chib ketishlar kuzatildi.

Bu masala bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular orasida U.Mirzaliyev, H.Xushvaqtovlarning ishlari anchagina keng qamrovlidir. Quyida U.Mirzaliyevning Sirdaryo viloyati aholisi milliy tarkibi 2005-yil 1-yanvar holati bo'yicha keltirgan jadvalni keltirib o'tamiz (Ming kishi.foiz hisobida)<sup>64</sup>:

o'zbek	qora-qalpoq	to-jik	rus	qozoq	tatar	qir-g'iz	ko-reys	turk-man	Boshqa millatlar
74,0	0,01	8,9	4,4	3,4	1,2	2,0	1,2	0,01	4,6

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, Sirdaryo aholisining etnik tarkibi anchagina rangbarangdir. Shu bilan birga, viloyatda o'zbeklar asosiy ko'pchilikni tashkil etadi. Son jihatdan ikkinchi o'rinda turuvchi tojiklar esa 9% atrofida, ruslar uchinchi o'rinda – 4,4%, qozoqlar esa 3,4 % dir. Bir vaqtlar Mirzacho'l vohasi mahalliy aholisining sezilarli bir

<sup>64</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 97.

qismini tashkil qilgan qozoqlarning qo'shni respublikaga keng ko'lamda ko'chishlari natijasida ularning soni nisbatan kam foizni tashkil qila boshlagani ko'zga tashlanadi.